



## ALISHER NAVOIY „XAMSA“SIDA SHIRIN OBRAZINING YORITILISHI

**Muradova Shodiya Zokir qizi**

*Samarqand shahar 19-sonli maktabning ona tili va adabiyoti  
fani o‘qituvchisi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17268283>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Alisher Navoiyning „Farhod va Shirin“ dostoni qahramonlaridan biri – Shirin obrazi tahlil etiladi. Asarda Shirinning tutgan o‘rni, uning xarakter xususiyatlari hamda ma’naviy-axloqiy fazilatlarini yoritilib, Navoiyning ayol obrazini badiiy talqin etishdagi yondashuvi ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** „Xamsa“, „Farhod va Shirin“, Shirin, Mehinbonu, ayol, obraz.

**Annotation.** This article analyzes the character of Shirin in Alisher Navoi’s epic „Farhod and Shirin“. The study highlights Shirin’s role in the narrative, her character traits, and moral-ethical qualities, while also examining Navoi’s artistic approach to depicting the female image.

**Keywords:** Khamsa, Farhod and Shirin, Shirin, Mehinbonu, woman, character.

**Аннотация.** В статье анализируется образ Ширин – одной из героинь эпической поэмы Алишера Навои „Фарход и Ширин“. В произведении освещаются роль Ширин, черты её характера, духовно-нравственные качества, раскрывается подход Навои к художественной интерпретации образа женщины.

**Ключевые слова:** „Хамса“, „Фарход и Ширин“, Ширин, Мехинбону, женщина, образ.

Alisher Navoiy „Xamsa“sini o‘rganish davomida undagi beshta dostonida ham ayol qahramonlarni uchratishimiz mumkin. Albatta, bu qahramonlarning har biri tarixiy mavjudlik, badiiy to‘qimalilik, asardagi o‘rni, ijtimoiy-ruhiy holati, fe‘l-atvor xususiyatlari bilan ajralib turadi. „Xamsa“ obraz va qahramonlar gallereyasiga juda boydir. Asar tarkibidagi barcha dostonlarda biz asosiy qahramonlarda yoki epizodik qahramonlarda ayol obrazini uchratamiz.

Navoiy „Farhod va Shirin“ dostonida Shirinni o‘z xarakter xususiyati bilan Farhoddek teng o‘ringa chiqarilgan. U oliyjanob shaxs sifatida gavdalantirilib, bu obraz orqali ham Navoiyning eng ezgu orzu-armonlari namoyon bo‘ladi. Shirin obrazi Mehinbonu tarbiyasidagi ilmi, aqlli, iffatli bir qiz. U mamlakat obodligini o‘ylovchi, xalqni suv bilan ta‘minlashni maqsad qilgan. U malika bo‘lishiga qaramay boylik, mol-dunyoga o‘ch emas, uni inson baxti uchun xizmat qiluvchi amallar qiziqtiradi. U chin insonga muhabbat qo‘yishi ham uning buyuk fazilat sohibasi ekanligidan dalolat:

*„Menga ne yor-u ne oshiq havasdur,*



# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



*Agar men odam o‘lsam, ushbu basdur“.*

Nizomiy dostonidagi Shirin va Xusrav характери o‘rtasida konflikt mavjud. Biroq Shirin matonati va irodasi bilan bu konfliktni yo‘qotadi. Navoiy dostonidagi Shirin bilan Farhodning orzusi, fe‘l-atvori bir.

Alisher Navoiy yaratgan Shirin obrazi tamoman yangi talqinda gavdalanadi. U tashlab ketgan, vafosiz oshiqdan zorlanmaydi. Komil axloq egasi bo‘lgan Farhodning shiori asar boshidan oxirigacha vafodorlik edi. Nizomiy, Xusrav Dehlaviyning markaziy qahramonlari o‘z oshig‘ining jafoko‘yligidan, haqoratlaridan nolisa, Navoiy Shirini o‘z oshig‘ining pok muhabbati va cheksiz sadoqatidan mamnun bo‘ladi.

Insonning qadr-qimmatini baland ko‘tarish g‘oyasi dostonida Shirin obrazida misolida namoyon bo‘ladi. Navoiy asarda johil, vafosiz, xudbin kishilarni qoralaydi. Shirin Xusrav to‘g‘risida so‘zlar ekan, qo‘lida tig‘ tutib, muhabbat to‘g‘risida lof urayotgan kishida insoniy tuyg‘u nima ham qilsin deydi:

*Ki, chekkay tig‘u urg‘ay ishq lofin,  
Musallam kim tutar mundoq gazofin.*

Chiroyli so‘z o‘yinlari bilan bitilgan quyidagi misralar aforizm darajasiga ko‘tarilgan:

*Quloq ishq ahli solmas bo‘yla so‘zga,  
Ki shahliq o‘zgadur, oshiqliq o‘zga.  
Kerak oshiqqa jon – jonon fidosi,  
Tilarul qilsa jonon – jon fidosi. [1:340]*

Navoiy dostonida Shirin obrazini yanada ochib beruvchi vositalardan biri – uning Farhod bilan yozishmalaridir. Ayriliq va Xusrav tug‘dirgan falokatlar natijasida Farhod qalbiga hamroh bo‘lgan dard-alamlarni o‘z nomasida yoriga bitadi. Shirin Farhod ro‘zgorini o‘zining qora sochlaridek qorong‘i deb biladi. Uning „qomati g‘am yuki ostida yangi chiqqan oydek dol bo‘lsa kerak“ deya qayg‘uradi. Farhod chekayotgan azob-uqubatlarni Shirin o‘zi tufayli ro‘y berayotganligidan afsus-nadomatlar chekadi. Shirin maktubidagi:

*Ko‘rub xor-u xas o‘rningda, nihoniy,  
Sochim birla supursam erdi oni.  
Chu bilsam garddin ko‘nglungda qayg‘u,*

Yer uzra ashkdin sepsam edi suv... – misralari ilmiy adabiyotimizda aytilganidek, xalq poetik ijodiyotida ming yillar davomida yashab kelayotgan xalq qo‘shig‘ini eslatadi.

Rivoyatlarda barcha hayvonlar, jonivorlar Sulaymon payg‘ambarning farmonida bo‘lgan deb aytiladi. Shirin Salosilda kiyiklar-u vahshiy hayvonlar bilan



# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



hamdard, do‘st bo‘lib qolgan Farhodni o‘sha Sulaymonga, o‘zini esa Sulaymonning xotini Bilqisga qiyoslaydi. Quyidagi misralarda Shirinning ichki kechinmalari Navoiy qalamiga xos mahorat bilan qog‘ozga ko‘chirilgan:

*Quyosh yanglig‘ bo‘lub kunduz qarining,  
Bo‘lub tun soya yanglig‘ hamnishining.  
Tikan kirska kafingg‘a kiynasidin,  
Chiqorsam erdi kirpik ignasidin.  
Ayog‘ sunsang bo‘lub g‘amdin xaroshing,  
Mudom o‘lsa edi qo‘ynunda boshing.  
Ko‘rub xor-u xas o‘rnungda, nihoniy  
Sochim birla supursam erdi oni.  
Chu bilsam garddin ko‘nglungda qayg‘u,  
Yer uzra ashkdin sepsam edi suv. [1:323]*

Shirin Farhodga „kunduz kunlari quyoshdek yaqining bo‘lsam“, „tunda esa soyadek yoningda yursam“, „agar kunduz kunlari zeriksang, tongda quyosh issig‘i senga ozor yetkazsa, sochim bilan so‘lim bir tun yetkazsam“, „o‘zingni o‘zing ko‘rishni istasang, yuzumni oyna qilib seni aks ettirsam“, – deya yozadi. Bu qahramon fazilatidagi xususiyatlar Navoiy qalami bilan shu darajada nafis va go‘zal ishlanganki, hozir ham o‘z qiymatini yo‘qotgan emas.

Sharq adabiyotida Navoiygacha yozilgan Shirin qissalari o‘rtasida Nizomiy dostoni dastlabki bosqich bo‘ldi. Keyinchalik yaratilgan hamma „Shirin va Xusrav“ hamda „Farhodnoma“ dostonlarida Shirin obrazining evolyutsiyasi ravshan ko‘zga tashlanmaydi. Navoiy dostonida bu obraz alohida diqqat bilan ishlangan. Shirin dahshatli yov oldida o‘zining shaxsiy erkini himoya qilib mardonavor turadi. Ayol kishining achchiq qismati oldida dam bo‘yin ekkan, dam tug‘yonga kelgan Shirin voqealar davomida yaxshilikka umid bog‘lab razolatga qarshi shiddatli e‘tiroz bilan chiqadi. U Farhodga yo‘llagan ikkinchi maktubida sadoqati uchun qasamyod qiladi. Dushman g‘olib kelib qolgan taqdirda Xusravga taslim bo‘lmay o‘zini halok etajagini dadil yozadi. Shu o‘rinda akademik Oybek va A. Deychning quyidagi so‘zlarini eslash o‘rinli: „Navoiy ijodida muhabbat problemi muhim o‘rin tutadi. Shoir uchun muhabbat faqat chuqur shaxsiy tuyg‘u bo‘lib qolmay, qudratli ijtimoiy faktordir. Muhabbat o‘z zamonida huquqsizlantirilgan ayolni baxti uchun, shaxs hurriyati uchun kurashga ilhomlantiruvchi kuchdir“.

Shirin maktublari salaflari asarlaridagi Xusravdan uzoq turgan Shirin maktublaridan, ularning savol-javoblaridan tub ma‘nosi bilan farq qiladi. Bu dastlab doston muallifining g‘oyaviy niyati, obraz ustidagi ijodiy ishi bilan bog‘liqdir.



# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



Nizomiy Shirinida uning nomalari, Xusrav bilan savol-javoblari ko‘pincha pand-nasihatlardan, bir-birlariga bo‘lgan e‘tiroz va tanbehlardan iborat. Shu munosabat bilan Ye.Bertels yozgan edi: „Shirinning (Navoiy Shirini) Farhodni qayta tarbiyalashiga ehtiyoj yo‘q edi. Uning Farhodga muhabbati butun faoliyatining mazmunini tashkil qiladi, unda yuksak darajada hayolilik paydo qiladi. Nizomiy asarida Xusravga nisbatan bo‘lganidek, Farhodga nasihat, ta’na darajasida muomala qilishga bu yerda o‘rin yo‘q. Shirin o‘zining latofati, ajoyib aqli, cheksiz sadoqati bilan Farhodni hayajonga soladi. U ideal obraz, oxirigacha xotin-qizlarga xos bo‘lgan nazokat-latofat egasi bo‘lmish obrazdir“. [3:65]

Navoiy o‘z xamsanavis salafaridan farqli ravishda muhabbat mavzusini keng ko‘lamda hal etayotganligi yuqoridagilardan ko‘rinib turibdi. Navoiy dostonida Shirin salafar dostonlaridagiga nisbatan ancha kech paydo bo‘ladi. Shunga qaramay, u asarning markaziy qahramonlaridan biriga aylanib qoladi. Kichik yoshdan kanal qazish kabi foydali ishga bel bog‘lagan Shirin asarning oxirida juda ko‘p oliyanob sifatlarga ega bo‘lgan qahramon sifatida taniladi. Shirin o‘z faoliyati bilan odamiylik nomini baland ko‘taradi. Ma’naviy jasoratga qarshi isyonkorona maydonga chiqadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Alisher Navoiyning xotin-qizlar haqidagi o‘y-fikrlari, orzu-tilaklari ko‘p hollarda o‘sha zamon zayliga muvofiq hayotiy voqelik bilan qorishib ketgan. Alisher Navoiy yaratgan ayol timsollari o‘zining go‘zalligi va yorqinligi bilan kishilar qalbini zabt etib kelmoqda va yuksak darajadagi ibrat namunasi hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. XX жилдлик. VIII том. Фарҳод ва Ширин. – Тошкент: Фан, 1991.
2. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. Насрий баёни билан. – Тошкент: F.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
3. Erkinov S. Navoiy «Farhod va Shirin» va uning qiyosiy tahlili. – Toshkent: Fan, 1971.
4. Mallayev N. “O‘zbek adabiyoti tarixi” 1-kitob. – O‘qituvchi nashriyoti, 1965.
5. Tohirov S.Q. Xamsanavislik an’anasi va Alisher Navoiy “Xamsa”si. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, SamDU nashri, 2020.
6. Қажумов Азиз. „Фарҳод ва Ширин“ сирлари: Эзгулик ва севгини улуғловчи мотивлар.– Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.